



EXISTENTIALISM AND HUMAN EXISTENCE: IMPORTANT ASPECTS OF MUTUAL TRANSFORMATION

Farrukh Abdurakhmanovich Yuldashev

Phd, associate professor

Fergana State University

Farruxy911@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: existence, man, consciousness, thinking, self-awareness, freedom, existence, worldview, responsibility, truth, justice, morality, moral choice, perceived necessity, content, essence.

Received: 25.06.26

Accepted: 26.06.26

Published: 27.06.26

Abstract: In existential philosophy, human existence and its study are of paramount importance, and this doctrine requires an analysis of existence as a unique process defined by responsibility, anxiety, and perspectives on life. This article analyzes the socio-philosophical aspects of a person's ability to create their own essence, that is, to achieve true existence, the meaning of human life, the purpose of life, self-awareness, freedom, and a good reputation in society and life.

EKZISTENSIALIZM VA INSON BORLIG'I: O'ZARO TRANSFORMATSIYALASHUVINING MUHIM JIHTLARI

Farrux Abduraxmanovich Yuldashev

PhD, dotsent

Farg'ona davlat universiteti

Farruxy911@gmail.com

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ekzistensiya, inson borlig'i, ong, tafakkur, o'zlikni anglash, erkinlik, mavjudlik, dunyoqarash, mas'uliyat, xaqiqat, adolat, axloq, axloqiy tanlov, anglab olingan zaruriyat, mazmun, mohiyat.

Annotatsiya: Ekzistensial falsafada inson borlig'i va uni tadqiq etilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu ta'limotda mavjudlik, mas'uliyat, xavotir va hayotiy qarashlar bilan belgilanadigan noyob jarayon sifatida tahlil etish talab etiladi. Ushbu maqolada – insonni o'z mohiyatini o'zi yaratishga, ya'ni haqiqiy borliqqa erishish,

inson hayotining mazmuni, yashashning maqsadi, o'zlikni anglash, erkinligi, jamiyat va hayotda yaxshi nom qoldirishi masalalari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan.

ЭКЗИСТЕНЦИАЛИЗМ И БЫТИЕ ЧЕЛОВЕКА: ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ВЗАИМНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Фаррух Абдурахманович Юлдашев

PhD, доцент

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: существование, человек, сознание, мышление, самосознание, свобода, существование, мировоззрение, ответственность, истина, справедливость, мораль, моральный выбор, воспринимаемая необходимость, содержание, сущность.

Аннотация: В экзистенциальной философии человеческое существование и его изучение имеют огромное значение, и эта доктрина требует анализа существования как уникального процесса, определяемого ответственностью, тревогой и взглядами на жизнь. В данной статье анализируются социально-философские аспекты способности человека создавать свою собственную сущность, то есть достигать истинного существования, смысла человеческой жизни, цели жизни, самосознания, свободы и доброго имени в обществе и жизни.

Kirish. Ekzistensial falsafa inson borlig'ini falsafaning markaziga qo'yadi. Uning asosiy maqsadi – insonni abstrakt tushunchalar va umumlashmalardan ajratib, uning yagona, noyob va haqiqiy mavjudligini tadqiq etishdir. Inson dastlab dunyoga keladi, mavjud bo'ladi va faqat shundan keyingina o'z harakatlari, tanlovlari va kechinmalari orqali o'zining mohiyatini (kimligini) yaratadi. Ekzistensialistlar inson borlig'ini oddiy mantiq yoki fan bilan o'rganish mumkin bo'lmagan maxsus kechinmalar orqali tadqiq qiladilar. Ekzistensial falsafa inson borlig'ini tadqiq etishda aniq fanlar yoki klassik metafizika usullarini rad etadi. Inson – bu biologik, ijtimoiy va ma'naviy mavjudotning umumiy tushunchasidir[1]. U aql-idrokka, onga va nutqqa ega bo'lgan, tarixiy-ijtimoiy faoliyat vositasida o'z mohiyatini shakllantiruvchi mavjudlik sifatida qaraladi. Inson tabiati (mohiyati)ni, uning kelib chiqishi, dunyodagi o'rni va imkoniyatlarini o'rganadi.

Ekzistensializm da inson umumlashgan mohiyat emas, balki doimiy loyihalanuvchi, erkin tanlovlar qiluvchi individ sifatida muhimdir. Ekzistensial falsafada inson borlig'i, birinchi

navbatda, erkinlik, mas'uliyat, xavotir va o'lim bilan belgilanadigan shaxsiy, noyob jarayon sifatida tadqiq etiladi. Uning tadqiqot maqsadi – insonni o'z mohiyatini o'zi yaratishga, ya'ni haqiqiy borliqqa erishishga undashdir. Ta'kidlash kerakki ko'plab g'arb faylasuflari tomonidan insonning subyektiv kechinmalari, tajribalari va ongida "namoyon bo'layotgan narsalar" bevosita tahlil qilinadi. Masalan, xavotir yoki qo'rquv kabi hislarning mohiyati o'rganiladi. Deyincha (Dasein) M.Xaydegger inson borlig'ini "u yerda mavjud bo'lgan borliq" yoki "Deyincha" deb ataydi[2]. U Deyinchani tashqi obyekt sifatida emas, balki dunyo bilan o'zaro aloqada bo'lgan va doimiy ravishda o'z imkoniyatlarini amalga oshirayotgan mavjudlik sifatida tahlil qiladi.

Faylasuflar insonning o'z hayoti uchun mas'uliyatni bo'yniga olib, erkin tanlovlar qiladigan haqiqiy borlig'i (Autentiklik) va jamiyat normalariga ko'r-ko'rona amal qilib, o'z mohiyatini yaratmaydigan nohaqiqiy borlig'i (Noautentiklik) o'rtasida farqlaydi. O'zbek ta'limotida ekzistensializm G'arbdagi kabi alohida yo'nalish sifatida shakllanmagan bo'lsada, uning asosiy motivlari asarlarning mazmuni va qahramonlarning ruhiy holatida chuqur aks etgan. Mustaqillik davri adabiyotida shaxsning erkinligi, tanlov mas'uliyati va jamiyatdan ajralib chiqishi muammolari markaziy mavzuga aylandi. Faylasuflar qahramonlarining ichki dunyosini, ularning ma'naviy inqirozlar vaziyatida o'z hayotining mazmunini izlashini ko'rsatishga intildilar. Bunda birinchi navbatda qahramonning ichki dramtizmi ko'plab zamonaviy hikoya va romanlarda qahramon o'zini jamiyatga yot yoki nomutanosib his qiladi. Uning yolg'izligi, o'z hayot yo'lini o'zi tanlashga bo'lgan majburiyati ekzistensial xavotir (trevoga) bilan uyg'unlashib ketadi. O'zbek adabiyotida hayotning o'tkinchiligi, inson qadri va umrning mazmuni kabi azaliy falsafiy masalalar yangicha nuqtai nazardan talqin qilinmoqda. Masalan, qahramonlarning o'lim yoki katta fojea oldida turib, haqiqiy insoniy mohiyatini anglashi tasvirlanadi. Ba'zi bir noodatiy va postmodernistik adabiy asarlarda turmushning ma'nosizligi, adolatning yo'qligi (Alber Kamyuning "absurd" g'oyasiga yaqin) kabi kayfiyatlar kuzatilishi mumkin. Bunda qahramonlar mavjud ijtimoiy vaziyatga qarshi isyon qilish, hatto bu isyon ma'nosiz bo'lsa ham, insoniy qadr-qimmatni saqlab qolishga harakat qiladi[3].

Asosiy qism. Zamonaviy o'zbek falsafasida ekzistensializm asosan, falsafa tarixi va inson falsafasi (antropologiya) yo'nalishlarida o'rganiladi va tahlil qilinadi. Mustaqillikdan keyingi falsafiy tafakkurda inson muammosi yana markaziy o'ringa chiqdi. Ekzistensializm bu jarayonda insonning individualligi, ma'naviy inqirozlari va erkinligini o'rganish uchun muhim metodologik asos sifatida xizmat qilmoqda. Sharqona va g'arbona yondashuvlar transformatsiya va sintezi O'zbek falsafasida ekzistensializm nazariyalari sotsio-madaniy muhitidagi inson haqidagi ta'limotlar (masalan, tasavvuf falsafasi) bilan sintezlashayotgani kuzatiladi. Tasavvufdagi "O'zlikni anglash" va "Haqiqatga yetishish yo'li" g'oyalari ekzistensializmdagi haqiqiy borliqqa

erishish (autentiklik) g'oyasi bilan ma'lum ma'noda hamohanglik kasb etadi. Shu bilan birga qadriyatlar falsafasi zamonaviy o'zbek falsafasida "Qadriyatlar falsafasi" (Aksiologiya) rivojlanib, unda insonning o'z ma'naviy qadriyatlarini tanlash va ularga asoslanib yashash mas'uliyati ekzistensial nuqtai nazardan o'rganiladi[4]. Umuman olganda, ekzistensializm o'zbek madaniy va falsafiy tafakkuriga insonning individualligini, uning tanlov erkinligi va mas'uliyatini chuqurroq anglash uchun turtki berdi. Ekzistensial falsafa doirasida bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning dunyodagi o'rni va mohiyatini anglashga xizmat qiladi.

Ekzistensiya - mohiyatdan oldingi mavjudlik sifatida e'tirof etilib, "mavjud bo'lish" yoki "tashqarida turish" degan ma'noni beradi. Ekzistensial falsafadagi asosiy tushuncha insonning noyob, individual, takrorlanmas va bevosita kechinmaviy borlig'i, obyektiv reallik (narsalar olami), mantiqiy ong (abstrakt fikrlar olami) bilan chegaralanadi. U insonning hayotiy tashvish, xavotir, tanlov va o'lim oldidagi kechinmalari orqali namoyon bo'ladi[5]. Shu asosda ekzistensial ta'limot bo'yicha inson borlig'ini quyidagicha tadqiq etish mumkin:

-Insonning ijtimoiy mohiyati, shaxs insonning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi sifatidir. U insonning ongli faoliyat subyekti sifatida namoyon bo'lishi, o'z-o'zini anglashi va jamiyatda o'ziga xos o'rin egallashini anglatadi.

-Axloqiy-ma'naviy kategoriya, shaxsda uning mas'uliyati, qadriyatlari, e'tiqodi va ijtimoiy rollari birlashadi.

-Ekzistensializm va shaxs ekzistensializmida shaxs ko'pincha "haqiqiy borliqqa erishgan" (autentik) ekzistensiya sifatida tushuniladi, ya'ni u jamiyatning "qoliplari"dan chiqib, o'z erkinligi va mas'uliyatini to'la anglab yashaydi.

-Eng umumiy va fundamental tushuncha falsafada mavjudlik – bu umuman bor bo'lgan barcha narsalarning birligidir. Bu tushuncha nafaqat moddiy olamni, balki g'oyalarni, ruhiy holatlarni va insonning o'zini ham qamrab oladi.

-Ontologiya mavjudlik mohiyatini, uning turlari (obyektiv, subyektiv, ruhiy, ijtimoiy) va uning umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi falsafa bo'limi orqali inson borlig'i tavsif etiladi. Haqiqatda bor bo'lgan "moddiy" yoki "haqiqiy" degan ma'noni beradi. Reallik – bu mavjudlikning konkret, obyektiv va tajriba orqali berilgan shaklidir. Obyektiv va subyektiv reallik obyektiv (ongdan tashqaridagi olam – tabiat, jamiyat) va subyektiv (ongdagi olam – his-tuyg'ular, tasavvurlar) reallikka bo'linadi. Mavjudlikka nisbatan reallik ko'pincha mavjudlikning bir qismi sifatida qaraladi. Mavjudlik reallikdan tashqari imkoniyatlarni (kelajakdagi yoki mumkin bo'lgan holatlarni) ham qamrab olishi mumkin. Inson borlig'ining falsafiy mazmuni ekzistensiya va mavjudlik sintezi bilan uyg'undir. Bu tushuncha insonning mavjudlik (umumiy olam) bilan bog'liqligini va uning o'ziga xos ekzistensiyasini birlashtiradi. Inson borlig'i – bu moddiy (tana),

ruhiy (ong, ruh) va ijtimoiy (munosabatlar) jihatlarni o'z ichiga olgan, vaqtda kechadigan, maqsadga yo'naltirilgan va o'lim bilan chegaralangan hayotiy jarayondir. Uning ustuvorlik xususiyati shundaki falsafada inson borlig'i muammosi har doim asosiy o'rin tutib, u hayotning mazmuni, erkinlik, adolat va baxt kabi azaliy savollarga javob izlashning manbai bo'lib kelgan. Bu tushunchalarning falsafiy tahlili insonning dunyodagi o'rnini har tomonlama anglashga imkon beradi.

Insoniyatning ideal holatining but-butunligi - uning turmushi va ruhiyatini tashkil etuvchi komponentlarning (qismlarning) to'la erkin va ozod bo'lishidadir. Ekzistensializm insondagi ekzistensiyani (mavjudligini, borlig'ini) inson borlig'idagi ichki omillarini tashqi omillarga ta'siri natijasidagi umumlashuvni tushunadi. Ularning fikricha, inson tashqi olamni uni o'z ichki olamiga, ya'ni shaxsiyatining individual borlig'iga kiritishi bilan anglay oladi. Ekzistensializm Yevropada ilk bor (dastlab) inson borlig'i, tashqi olam, va "Men" tushunchalarini alohidaliklar sifatida emas, balki tashqi olam bilan insonning shaxsiy borlig'iga - bir butunlik, yagona tizim sifatida qarash imkonini berdi. Lekin shunisi borki bunday holatda, inson ekzistensiyasi germetik jihatdan biqiq holatga kira boshlaydi. Inson ruhi va borlig'i turmush muammolaridan tashkil topgan - bir necha mustaqil "Daseinlar"ga parchalana boshlaydi[6]. Shaxs va uning kichik o'ziga xos olami kosmik yagonalikka erishish umididan mahrum bo'ladi. Ijtimoiy tashkil etilgan inson - bu dezintegratsion jarayonda dunyoni, olamni bir butun etib anglash qobiliyatini, hayotiy tajribakorligini yo'qotadi, turmush tarzini tanlashga qiziqishi susayadi.

Adabiyotlar tahlili. Ekzistentsialistlar mushohada yuritish orqali anglab yetish mumkin bo'lgan mohiyat (essentsiya)ni amalda mavjudlik (ekzistentsiya)ga qarshi qo'yadilar. Ular borliqning mazmuni to'g'risidagi masalaga qaytish lozimligini uqtiradilar. Demak, borliqning oqilona tavsifi uning asl mazmunini yoritib berishga qodir emas. Falsafiy muammo sifatidagi borliqning mazmuni insonni o'z mavjudligining pirovardligi va tasodifiyligini anglash natijasida yuz bergan shokdan xalos etishi lozim. Borliq germenevtikasi oqilona-sxematik yoki metafizik bilimga ishonchsizlik ko'zi bilan qarashga asoslanadi[7]. Falsafa tarixida germenevtikaning ayrim tarafdorlari mistik, estetik, intuitiv, irratsional narsalar va hodisalarga qarab mo'ljal oladilar. Dunyoni anglab yetish mazkur usulining aks sadolari Pifagor, Platon, Tertullian, Paskal ta'limotlari, romantiklar, Kierkegor, Shopengauer va Nitsche metodida mavjud. Borliq va mavjudlik M.Xaydegger ijodi asosida borliq va mavjudlikni ontologik ajratish Xaydegger loyihasining tayanch nuqtasi hisoblanadi. Bu loyihani ishlab chiqish bilan u asosan «Borliq va vaqt», «Fenomenologiyaning asosiy muammolari» asarlarida shug'ullanadi[8]. Xaydegger fikricha, borliq, albatta, mavjudlikning borlig'i, lekin borliq mavjudlikdan kelib chiqadigan yo'qlik emas, ya'ni u mavjudlik hisoblanmaydi. Bu yerda Xaydegger Kantning borliq predikat

emas, degan fikriga qaytadi. Ammo bu holda borliq nima? Keng tarqalgan tasavvurga ko'ra, mavjud narsalarning barchasi ayni bir borliq usuli – mavjudlik bilan tavsiflanadi. Shunga muvofiq tabiat va ruh (g'oya va narsa, res cogitans va res extensia) farqlanadi. Ammo bu farqlash borliqning usullari o'rtasidagi farqni ifodalashga qodir emas. U faqat mavjud narsaning mohiyatini belgilovchi unsurlar o'rtasidagi farqni aks ettiradi[9]. Xaydegger fikriga ko'ra, borliq usullarini ajratishning haqiqiy yo'li borliqning mohiyati (essentia) va usulining bir-biriga mansubligini mohiyat va usulning borliq g'oyasiga mansubligi nuqtai nazaridan tahlil qilishga asoslanadi. Xaydegger borliqning olti usuli- ekzistentsiya, birgalikda mavjudlik, qo'l ostidalik, hozirlik, hayot va barqarorlikni farqlaydi. Bu usullarning barchasi bir-biridan shu darajada farq qiladiki, «borliq» tushunchasining yagonaligini shubha ostida qoldiradi. Bu yerda mavjudlik to'g'risidagi masala Xaydegger qarshisida eng muhim masalalardan biri sifatida ko'ndalang bo'ladi.

Mavjudlik tushunchasining tahlili uning «hozirlik», «dunyo» va «qo'l ostidalik» tushunchalari vositasida ifodalanuvchi fenomenlar bilan ontologik o'zaro aloqasini qayd etishdan boshlanadi. Bunda mavjudlikni borliq turlaridan biri sifatida tushunish mumkin emasligi, mavjudlik muammosini, «uning shartlari va chegarasini» atroflicha o'rganish zarurligi ta'kidlanadi. Faylasuflar hatto mavjudlik to'g'risidagi masalani qo'yish usulida ham aniq bir to'xtamga kelganlari yo'q. Bu xususda Xaydegger mazkur sarlavha ostida mazmunan har xil bo'lgan masalalarni, chunonchi: «ongga nisbatan transtsendent» bo'lgan narsa mavjudmi, tashqi dunyoning mavjudligini isbotlash mumkinmi, mavjudlikni anglab yetish mumkinmi qabilidagi masalalarni va nihoyat, mavjudlikning mazmuni to'g'risidagi masalani aralashtirish odat tusini olganini ta'kidlaydi. Yuqorida zikr etilgan har xil, lekin o'zaro bog'langan masalalar Xaydeggercha talqinining xususiyati mavjudlik muammosini u uch qismga ajratishida oydinlashtiradi:

- borliq hamda «tashqi dunyo»ni isbot qilish mumkinligi muammosi sifatidagi mavjudlik;
- ontologik muammo sifatidagi mavjudlik;
- mavjudlik va tavajjuh. Birinchi muammoni tahlil qilar ekan, Xaydegger tashqi dunyoning mavjudligi yoki uni isbotlash to'g'risidagi masala bir vaqtning o'zida ma'nosiz va ikki ma'noli ekanligini qayd etadi. Masalaning ma'nosizligi shu bilan izohlanadiki, mazkur masala dunyoda borliq sifatida mavjudlik bilan qo'yilgan. Masalaning ikki ma'noliligi, Xaydegger fikriga ko'ra, bir-biridan farq qiladigan ikki narsa: nimadadir borliq sifatidagi dunyo va ichki mavjudlik sifatidagi «dunyo»ning aralashuvi tufayli kelib chiqadi[10]. Tashqi dunyoning mavjudligi to'g'risidagi masala bu yerda dunyo fenomeniga oydinlik kiritmasdan qo'yiladi. Buning oqibatida amalda isbotlanayotgan narsa yoki hodisaning isbotlash usuli va isbotlashning e'lon qilinayotgan maqsadi bilan aralashuvi yuz beradi. Xaydegger nuqtai nazarlari o'rtasida muayyan o'xshashlik

mavjud. Ularning ikkalasi ham bu soxta muammoni o'zidan soqit etishga harakat qiladi. Bunda ular shu tariqa barcha antirealistlarni kuchli dalildan mahrum etishga umid qiladilar. Ular mazkur masalaning qo'yilishining o'ziyoq mantiqsiz ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning asosiy farqi shundaki, Xaydegger bahslashish uchun asoslar mavjud emas deb hisoblaydi. U realistlarning nuqtai nazarini ham, idealistlarning qarashlarini ham qattiq tanqid qiladi. Realistlarning qarashlarida u «ontologik tushunarsizlik»ka, ya'ni mavjudlikni ontotik (borliqning tartibi orqali emas, balki mavjudlikning tartibi orqali) tushuntirish niyatiga e'tiborni qaratadi. Idealistlarni ular o'zlarining borliq haqidagi tasavvurlarini mavjudlik orqali tushuntirishga harakat qilganlari uchun ayblaydi. Idealistlar borliqni mavjudlik orqali tushuntirish mumkin emasligini anglamaydilar. Shuningdek idealistlar mavjudlikning ideal borlig'i haqidagi tasavvurdan kelib chiqadigan oqibatlarini, xususan ongning borlig'i haqidagi masalani e'tibordan soqit etadilar.

Bularning barchasi Xaydegger mavjudlik muammosini ontologik tahlil qilish zarur, degan xulosaga kelishiga sabab bo'ladi. U hatto buning uchun mavjudlikni anglab yetishning «poydevorlari va ufqlari»ni yorituvchi maxsus ekzistentsial-ontologik kontseptual bazani ta'riflaydi. Uning yordamida nemis mutafakkiri quyidagi diskursiv sxemani tuzadi. Mavjudlik dunyoda borlik demakdir, dunyoda borlik esa dunyo fenomenining o'ziga asoslanadi. Mazkur fenomen dunyoda-borliqning tarkibiga kiradi, dunyoda-borliq esa borliqning yaxlitligidan tavajjuh yordamida mustahkam o'rin oladi. Bu yerda mavjudlikka eng avvalo qarshilik ko'rsatish, sub'ektning ichki intilishlari ro'yobga chiqishiga monelik qilishga qodir bo'lgan yuzaki fenomen sifatida yondashgan Diltey va Shelerning ta'sirini ham e'tiborga olish lozim. Xaydegger mavjudlikning volyuntaristik kontseptsiyasi doirasini kengaytirishga va uni hozirlikning tahlili ruhida o'zgartirishga harakat qiladi. Darhaqiqat, intilish voqelik bilan o'zaro ta'sirga kirishish jarayonida qarshilikka duch keladi, lekin mavjudlik va hozirlikning munosabati qarshilik fenomeni bilangina cheklanmaydi, qarshilik ko'rsatish qobiliyati – mavjudlikning xususiyatlaridan biri. «Mavjudlikni anglash»ning o'zi ham dunyoda borlikning muayyan usulidir. Shuni qayd etish lozimki, Xaydeggerning mavjudlik xususidagi mulohazalari mazkur muammoga doir falsafiy bahs-munozaralardan chetda turadi. Bu hol Xaydegger bahslashuvchi taraflarni yengishga muvaffaq bo'lgani bilan emas, balki uning falsafasi aksariyat masalalar va tushunchalar yuzasidan muloqot uchun zamin yaratmasligi bilan izohlanadi. Xaydegger Gusserlning fenomenologik metodini o'zlashtiradi, lekin uni borliq muammolarining tahliliga tatbiq etadi. Hozirgi dunyoda inson borliq haqidagi tasavvurni deyarli yo'qotgan. Hozirgi hayot moddiy narsalarning mavhum, mantiqiy tilida gapiradi, shu sababli haqiqiy borliqni faqat insonning mavjudligi (Dasein) orqali tasavvur qilish mumkin.

Inson hayoti hayotning boshqa shakllaridan butunlay farq qiladi, chunki o'zini o'zi bilish va borliq haqida mulohaza yuritishga qodir. Inson haqiqiy yoki haqiqiy bo'lmagan mavjudlikni tanlashi mumkin. «Borliq va vaqt» asarida Xaydegger insonning mavjudligini tahlil qiladi va unga borliqning o'zini tushunishga eltuvchi yo'l sifatida yondashadi. Mavjudlikning insoniy usuli biz o'z hayotimizni amalga oshiruvchi ko'p sonli yo'llarni anglatadi. Inson dunyoda mavjud bo'ladi, u bilan to'qnashadi va kundalik mavjudlik sharoitlariga moslashishi va unga ko'nikma hosil qilishi mumkin. Bunday inson o'z mohiyatidan uzoqlashgan va haqiqiy bo'lmagan hayot kechiruvchi «anonim mavjudot» hisoblanadi. U yo'qlikka (o'limga) intiladi va o'zining betakrorligini dahshat orqali anglab yetadi. Inson aynan borliqning mantiqsizligidan dahshatga tushish orqali o'zining haqiqiy borlig'ini tushunib yetadi. Hamonki inson o'zini o'lim dahshati orqali anglab yetar ekan, muvaqqatlik inson mavjudligining bosh xossalardan biri hisoblanadi. Mavjudlikning muvaqqat tuzilishi o'zlikni anglash va harakatning bosh omilidir. Xaydegger o'z ijodiy faoliyatining so'nggi bosqichida til hamda texnika ekspansiyasi natijasida hozirgi zamon inqirozi mavzulariga qo'l uradi. U texnikaga yangi Yevropa tarixini harakatlantiruvchi kuch sifatida qaraydi. Texnika mavjudlikni unga o'z hukmini o'tkazish uchun predmetga aylantiradi. Bu oxir-oqibat shunga olib keladiki, insonning o'zi ham texnikaga qaram bo'lib qoladi, predmetga aylanadi.

Xaydeggerning falsafiy g'oyalari ko'pgina mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilgan. Bu mutafakkirlar orasida Xaydeggerning izdoshlari ham (Gadamer), uni tanqid qiluvchilar ham bor. Mavjudlik tahlili metafizikani borliqni uni moddiylashtirish, ko'lamlashtirish orqali anglab yetish sifatida rad etadi. Metafizik fikrlash uslubining tanqidi zamirida uni fikrlash erkinligidan voz kechish sifatida tasavvur qilish yotadi. Metafizik fikrlash uslubining tanqidchilari uni mazkur fikrlash uslubining zamirida borliqni anglab yetish, uning mazmun va mohiyatini tushunish mumkin emas, degan g'oya yotganligi uchun tanqid qiladilar. Metafizika zamirida yotuvchi optik metafora bizni borliqqa yuzaki fenomen sifatida yondashishga majbur qiladi. Bunda borliq narsa sifatida tushuniladi, uni anglab yetish esa uning xossalari, muhim belgilari va shu kabilarni aniqlash orqali amalga oshiriladi. Amalda borliq ko'lamlanib ob'ektga aylanadi. Ammo borliq narsa emas. Xaydegger ilmiy tadqiqotning odatdagi tartib-taomillariga qarshi chiqadi, u muayyan masalani qo'yishda uning mazmunini teran anglab yetish lozim, deb hisoblaydi. Muloqotni imitatsiya qilar ekan, tadqiqotchi o'z suhbatdoshi inson, boz ustiga bilimdon inson emasligini unutmasligi kerak. Ushbu jarayonda javobni savol bergan odamning o'zi izlashi lozim.

Borliqning mazmuni to'g'risidagi masala borliq va vaqtning aloqasi, borliqning mazmuni to'g'risidagi masala vaqtni anglab yetish muammosi bilan uzviy bog'liq. Borliq tushunchasi Yevropa falsafasini yaratibgina qolmaydi, mazkur atamaning intellektual tarixi falsafa tarixi bilan tengdoshdir, u bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar mazmunining xususiyatlari falsafa va jamiyat

o'rtasidagi murakkab munosabatlar mohiyatini ko'p jihatdan belgilaydi. Faylasuflar o'z bilimining «mag'zi»ni «oddiy odamlar»ga odatda borliq haqidagi fikr yoki fikrlar majmui yordamida yetkazishga harakat qiladilar[11]. Bunday fikrlardan Koinot tamoyillari va qonunlari, narsalar tabiati haqidagi, yaxshilik va yomonlik, maqsadlar va qadriyatlar, o'tmish, hozirgi zamon va kelajak haqidagi ta'limotlar kelib chiqadi. Ayni shu sababli faylasuflar borliqning xossalari va munosabatlari xususida bahslashadilar. Borliq birlamchi, borliq oldindan belgilanmagan, borliq yaratadi, borliq abadiy, mukammal va o'zgarmas, borliq yagona, qo'shaloq yoki ko'p sonlidir. Borliq nimaga qarshi turadi yo'qlik, shakllanish va onggami? U moddiy yoki idealmi? Bir so'z bilan aytganda, borliq o'z-o'zidan ravshan tushunchadir. Faqat borliqning xossalari va munosabatlari ko'rsatilgan borliq nazariyasini yaratish talab etiladi. Borliq haqida hamma narsani bilsak, dunyo, inson, o'tmish va kelajak haqida ham hamma narsadan xabar topamiz.

Xulosa. Falsafa fikrlashning yangicha uslubini kashf etdi. Bu fikrlash uslubini yordamida biz aslida narsa bo'lmagan fenomenlarga ham narsa sifatida yondashishimiz mumkin. XX asrda pragmatistlar, fenomenologlar, neopozitivistlar shug'ullandilar, hermenevtikani, neopozitivistlar esa tilning mantiqiy tahlili va harakatning lingvistik tahlilini yaratdilar. Ammo bu yondashuvlarning barchasi aslida nomoddiy moddiylashtirishga tayanadi. So'zlar, fikrlar, sezgilar va qilmishlar tahlil predmetiga aylanishi uchun o'ziga xos narsalarga aylantiriladi. Qadimgi tahlilning maxsus vositasi – mantiq ularni teng huquqli tushunchalar sifatida birlashtiradi, faqat «yakka – umumiy» va «mavhum – konkret» yo'nalishlari bo'yichagina ularni ajratadi. Oradan yuz yilliklar o'tdi va faylasuflar falsafiy tushunchalarning mazmunini go'yoki ularning moddiy tabiatiga hech kim shubha qilmagandek muhokama qila boshladilar. Faylasuflar borliq nimaga o'xshashi va uning tabiati qandayligi xususida bahsga kirishdilar. Ayrimlar borliq moddiy va idealga bo'linadi, degan fikrni ilgari suradilar, ayrimlar uni faqat ideal, ma'naviy yoki ilohiy fenomen sifatida tasavvur qiladilar, yana bir guruh faylasuflar borliqning yagonaligi to'g'risidagi masalani kun tartibiga qo'yadilar. Xaydegger buni g'arb metafizikasi deb nomladi va unga Parmenid yashagan zamondan boshlab Kant va Gegel zamonigacha bo'lgan davrdagi barcha falsafiy ta'limotlarni kiritdi. Borliqning mazmuni nimada, degan savolga javob emas, balki savolning mazmuniga oydinlik kiritishdir. Borliq haqida shunday bir tilda gapira boshlashdiki, u mazmunning tagiga yetish imkoniyatini bermaydi. Borliq mohiyatini tushunib yetishda eng yangi qarashning o'zagini insonning ijtimoiy ijodi tashkil etadi. Bunda borliq hayot faoliyati jarayoni sifatida tushuniladi. Fan-texnika taraqqiyotining sur'atlari tobora jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda mazkur dunyoqarash ko'pincha texnokratik dunyoqarash deb ataladi. Demak, har bir inson dunyoni o'z irodasi, qadriyati va tajribasidan kelib chiqib talqin etadi. Borliq hech qachon

sub'yektsiz yoki nuqtai nazarsiz ochilmaydi. Dunyoni idrok orqali anglashni asosiy tamoyil, idrokning har bir shakli ontologik jihatdan o'ziga xos borliqni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Axmedova Falsafa. Darslik Toshkent 2006. b-355.
2. Heidegger, M., 1927 [1962]. Being and time, J. Macquarrie and E. Robinson (trans.), New York: Harper and Row. —, 1950 [1971] Poetry, language, thought, A. Hofstadter (trans.), New York: Harper & Row.
3. А.Камю. Эссе об абсурде. «Чувство абсурда» обнаруживается «в наш век повсюду 2012. стр. 41.
4. Қ.Назаров Қадриятлар фалсафаси (Аксиология) Тошкент 2004. Б-46.
5. Фалсафа энциклопедик луғат. И.Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ институти Тошкент 2010. б-3.
6. Dasein - “инсоннинг шу ондаги мавжудлиги”, “инсоннинг айнан ўзининг борлиги”, “инсон борлигининг намоён бўлган ҳолати, даражаси”. М.Хейдеггер томонидан киритилган немис фалсафасида, ҳозир экзистенциализмда ишлатиладиган фалсафий тушунча, категория.
7. Қ.Назаров Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб / – Т.: «Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти» нашриёти, 2023. Б-259.
8. Н.Маматов, А.Ҳожибоев, Ш.Жўраев Фалсафа тарихи (Шарқ ва Ғарб фалсафаси, ўқув қўлланма). Тошкент, ТМИ - 2006. бет-117.
9. Мартин Хайдеггер. "Бытие и время" (Мавжудлик ва вақт). Т.2003.
10. Хайдеггер М. Бытие и время. / Перевод с немецкого В.В. Бибихина. М.: Ad Marginem, 1997. 227 с.
11. Aho K. (ed.), 2018. Existential medicine: Essays on health and illness, London: Rowman and Littlefield.